

UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR AUDITINING TASHKILIY VA USLUBIY JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Bakayev Xurshid Maxmudovich

*Hamkorbank OATB Buxoro filiali "Tuqimachi" bank xizmatlari ofisi boshligi,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi, E-mail:*

bakaev.xurshid@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur tezisda uzoq muddatli aktivlar auditining zamonaviy talablar asosida tashkil etilishi va audit jarayonining uslubiy jihatlarini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Uzoq muddatli aktivlar – bu xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida ko'p yillar davomida foydalaniladigan, muhim iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan aktivlar bo'lib, ularning to'g'ri hisobga olinishi va muntazam ravishda tekshirib borilishi subyektning moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tezisda uzoq muddatli aktivlar auditini amalga oshirishda uchraydigan dolzarb muammolar tahlil qilinadi, xususan, buxgalteriya hisobi ma'lumotlarining yetarlicha aniqligi, aktivlarning mavjudligi va eskirish darajasi, ularning real bahosi, amortizatsiya hisob-kitoblarining to'g'riligini tekshirishdagi noaniqliklar kabi omillar chuqur ko'rib chiqiladi. Shuningdek, tezisda auditning tashkiliy jihatlari – ya'ni audit rejasini tuzish, auditorlar guruhining tarkibi, audit dasturi va muddatlarini belgilash kabi jihatlar muhim o'rin egallaydi. Uslubiy jihatlar esa, aktivlar inventarizatsiyasi, baholash, tahlil va xulosa chiqarish bosqichlarining zamonaviy audit texnologiyalari asosida takomillashtirilishini o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Uzoq muddatli aktivlar, audit, tashkiliy jihatlar, uslubiy jihatlar, buxgalteriya hisobi, audit sifati, auditorlik tekshirushi, aktivlar inventarizatsiyasi, aktivlar baholash, amortizatsiya, eskirish, moliyaviy hisobot, aktivlar nazorati.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va bozor munosabatlarining chuqurlashuvi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini aniq va haqqoniy ifodalovchi axborotga ehtiyoj ortib bormoqda.

Ayniqsa, uzoq muddatli aktivlar kabi muhim resurslarning buxgalteriya hisobi va auditini to‘g‘ri yuritish nafaqat tashkilotning ichki boshqaruvi, balki tashqi foydalanuvchilarning investorlar, kreditorlar va davlat organlarining qaror qabul qilish jarayonida asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli, bugungi kunda uzoq muddatli aktivlar auditining tashkiliy va uslubiy jihatlarini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri sifatida maydonga chiqmoqda.

Uzoq muddatli aktivlar korxonaning ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish yoki boshqa xo‘jalik faoliyatini yuritish jarayonida ko‘p yillar davomida foydalaniladigan, o‘z qiymatini asta-sekin amortizatsiya shaklida hisobdan chiqarib boradigan aktivlar hisoblanadi. Bular, asosan, asosiy vositalar, investitsiyalar, nomoddiy aktivlar, uzoq muddatli moliyaviy sarmoyalar va boshqa shunga o‘xshash resurslardir. Ularning auditini o‘tkazish orqali aktivlarning mavjudligi, real bahosi, foydalanish samaradorligi, eskirish darajasi hamda ularning buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarda to‘g‘ri aks ettirilganligi aniqlanadi.

Hozirgi davrda auditorlik faoliyatiga qo‘yilayotgan talablar tobora ortib bormoqda. Bu esa auditorlardan yuqori kasbiy saviya, zamonaviy yondashuvlarni qo‘llash va xalqaro standartlarga asoslangan metodikani chuqur egallashni talab etadi. Ayniqsa, uzoq muddatli aktivlar kabi murakkab hisoblashlar, baholash va inventarizatsiyani o‘z ichiga oluvchi aktivlar bo‘yicha auditni amalga oshirishda ushbu jihatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, ko‘plab korxonalarda auditning tashkiliy bosqichlari to‘liq shakllanmagan, audit dasturlari va mezonlari esa umumiy yondashuvlarga asoslangan bo‘lib, natijada audit sifati va samaradorligi past darajada bo‘lmoqda.

Uzoq muddatli aktivlar – bu korxona yoki tashkilot balansida bir yildan ortiq vaqt davomida foydalanish uchun mo‘ljallangan, foyda keltiruvchi aktivlar hisoblanadi. Bular orasida asosiy vositalar (binolar, uskunalar, transport vositalari), nomoddiy aktivlar (patentlar, litsenziyalar, dasturiy ta'minot), uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar va boshqa kapital mablag‘lar mayjud. Ushbu aktivlar

korxona aktivlarining muhim qismini tashkil etadi, ularning buxgalteriya hisobidagi to‘g‘ri aks ettirilishi va audit orqali tasdiqlanishi korxona moliyaviy barqarorligining asosiy kafolatlaridan biridir.

Uzoq muddatli aktivlar auditining tashkiliy va uslubiy jihatlarini takomillashtirish – bu auditorlik tekshiruvining sifati, aniqligi va ishonchliligin oshirish uchun zarur bo‘lgan muhim yo‘nalishdir. Tashkiliy jihatlar, odatda, audit jarayonining rejalashtirilishi, auditor guruhining shakllanishi, ularning majburiyatlari, vaqt taqsimoti va audit faoliyatining resurslar bilan ta’minlanishini o‘z ichiga oladi. Bu jarayonning samarali tashkil etilishi auditning sifatiga bevosita ta’sir qiladi.

Uslubiy jihatlar esa, auditorlik faoliyatini olib borishda qo‘llaniladigan metodlar, texnikalar, baholash mezonlari, dalillarni yig‘ish tartibi, tahlil qilish usullari va xulosa chiqarish kabi bosqichlardan iboratdir. Bu uslublarning to‘g‘ri tanlanishi va mos ravishda qo‘llanilishi audit natijalarining ob’yektiv va asosli bo‘lishini ta’minlaydi.

Amaliyotda uzoq muddatli aktivlarning qiymatini aniqlash, eskirish darajasini hisoblash, amortizatsiya miqdorini to‘g‘ri aks ettirish, ularning mavjudligi va holatini tekshirishda auditorlar ko‘plab qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ayniqsa, zamonaviy texnologiyalar va buxgalteriya dasturlarining keng qo‘llanilishi fonida auditning uslubiy yondashuvlari ham yangilanib borishi zarur. Buning uchun xalqaro standartlar asosida ilg‘or metodikalarni joriy qilish, milliy amaliyotga moslashtirish muhim hisoblanadi.

Shuningdek, auditorning mustaqilligini ta'minlash, axborot manbalarining ishonchliligin oshirish, subyektning ichki nazorat tizimi bilan integratsiyalashgan tekshiruv usullarini ishlab chiqish ham bu yo‘nalishda muhim ahamiyatga ega. Quyida keltirilgan jadvalda uzoq muddatli aktivlar auditining tashkiliy va uslubiy jihatlari hamda ularni takomillashtirish yo‘nalishlari tizimli tarzda ko‘rsatib berilgan (1-jadval):

1-jadval

Uzoq muddatli aktivlar auditining tashkiliy va uslubiy jihatlarini takomillashtirish yo'nalishlari¹

| № | Yo'nalish | Mavjud holat (muammo) | Takomillashtirish choralar |
|----------|-----------------------------|--|--|
| 1 | Audit rejalashtirish | Umumiy va soddalashtirilgan rejalar qo'llaniladi | Faoliyat turlariga mos differensial reja ishlab chiqish |
| 2 | Auditorlar tarkibi | Mutaxassislik bo'yicha ajratilmagan | Faoliyat sohasiga ixtisoslashgan auditorlarni jalb qilish |
| 3 | Aktivlar inventarizatsiyasi | Yiliga bir marta, yuzaki o'tkaziladi | Raqamli texnologiyalar asosida dinamik monitoring |
| 4 | Baholash metodikasi | Subyektiv yondashuvlar mavjud | Xalqaro standartlarga asoslangan baholash modellari |
| 5 | Amortizatsiya hisoboti | Noto'g'ri foizlar va muddatsiz aktivlar | Avtomatlashtirilgan amortizatsiya tizimlarini joriy qilish |
| 6 | Ichki nazorat | Kamchiliklar mavjud | Ichki audit bo'limlari bilan integratsiya |
| 7 | Audit dalillari | Yetarli asosga ega emas | Audit hujjatlarini elektron shaklda saqlash |
| 8 | Xulosalar chiqarish | Umumiy va aniq bo'limgan fikrlar | Har bir aktiv turi bo'yicha alohida xulosa tayyorlash |
| 9 | Hisobot tuzish | Standart andozalarda, tafsilsiz | Vizual grafiklar bilan boyitilgan interaktiv hisobotlar |

¹ Muallif tominidan tayyorlangan

| | | | |
|----|---------------------|------------------------------------|---|
| 10 | Auditorlik axboroti | Ma'lumotlar uzluksiz yangilanmaydi | Bulutli texnologiyalar asosida axborotni yangilash tizimi |
|----|---------------------|------------------------------------|---|

Yuqoridagi jadvalda uzoq muddatli aktivlar auditining asosiy tashkiliy va uslubiy jihatlari hamda ularni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar tizimli ravishda yoritib berilgan. Bu jihatlar har bir bosqichda auditorlik faoliyatining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Audit rejalashtirilishi – har qanday tekshiruvning poydevori hisoblanadi. Hozirgi holatda bu jarayon ko'pincha shablon asosida yuritiladi. Bu esa faoliyat turining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olmaydi. Shuning uchun differensial yondashuv asosida rejalashtirish auditorlik aniqligini oshiradi.

Auditorlar tarkibining mutaxassislik darajasi ham muhim omil hisoblanadi. Masalan, sanoat korxonalaridagi aktivlar bilan ishlash boshqa sohalarga qaraganda murakkabroq baholash va tahlil talab qiladi. Shu bois faoliyat sohasiga mos auditorlarni jalg qilish muhim.

Aktivlarning inventarizatsiyasi hozirda ko'pincha faqat yil oxirida o'tkazilmoqda. Bu esa o'zgarishlar va aktivlar holatidagi salbiy tendensiyalarni erta aniqlashga to'sqinlik qiladi. Shu nuqtai nazardan, raqamli vositalar orqali doimiy kuzatuv va monitoring mexanizmini yo'lga qo'yish tavsiya etiladi.

Baholash metodikasida ham muammolar mavjud. Subyektiv yondashuvlar, eskirgan metodlar va bozordagi real baholardan chetlashish holatlari tez-tez uchrab turadi. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) asoslangan baholash uslublari, aktivlarning foydali muddati va amortizatsiya darajasi bo'yicha aniq mezonlarni belgilash orqali bu muammoni bartaraf etish mumkin.

Ichki nazorat tizimining yetarli darajada shakllanmaganligi audit samaradorligini pasaytiradi. Bunda ichki audit bo'limlari bilan hamkorlikda tizimli monitoring olib borish, xatoliklar va suiiste'molliklarni oldindan aniqlashga yordam beradi.

Shuningdek, audit dalillari va hisobot tuzish tartibi ham takomillashuvga

muhtoj. Elektron hujjatlar asosida dalillarni saqlash, bulutli texnologiyalar orqali doimiy yangilanadigan audit axborot bazasini shakllantirish – bu sohadagi yondashuvlarni ancha samarali qiladi.

Umumiy qilib aytganda, uzoq muddatli aktivlar auditini takomillashtirish bo'yicha taklif etilgan chora-tadbirlar amaliyotga joriy etilsa, auditorlik tekshiruvlarining aniqligi, ishonchliligi va iqtisodiy ahamiyati sezilarli darajada ortadi. Bu esa oxir-oqibatda korxonalarning moliyaviy barqarorligi va tashqi foydalanuvchilarning ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, uzoq muddatli aktivlarning auditini tashkil etish va uni uslubiy jihatdan to'g'ri yo'lga qo'yish bugungi iqtisodiy sharoitda korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Audit jarayonining to'g'ri tashkil etilishi, ayniqsa, uzoq muddatli aktivlar bo'yicha ishonchli ma'lumotlar olish, ularning real holatini aniqlash, eskirish va amortizatsiya darajasini baholash, shuningdek, moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini ta'minlashga xizmat qiladi. Uzoq muddatli aktivlar katta hajmdagi investitsiyalarni o'z ichiga olganligi sababli, ularni noto'g'ri hisobga olish yoki baholash korxona faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin: birinchidan, auditorlar malakasini oshirishga qaratilgan doimiy o'quv-trening dasturlarini yo'lga qo'yish zarur. Bu nafaqat auditorlik sifati oshishiga, balki xalqaro standartlar asosida ishlash ko'nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Ikkinchidan, audit jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, xususan, raqamli audit vositalaridan keng foydalanish zarur. Bu orqali audit aniqligi va tezkorligi oshiriladi. Uchinchi muhim yo'nalish sifatida — uzoq muddatli aktivlarni baholash va inventarizatsiyadan o'tkazish jarayonlarini ichki audit tizimi bilan uyg'unlashtirish tavsiya etiladi.

Shuningdek, amaldagi audit standartlarini milliy sharoitlarga moslashtirish, metodik ko'rsatmalarni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish orqali audit jarayonini tizimli asosda takomillashtirish mumkin. Uzoq muddatli aktivlar auditi

shaffoflik, ishonchlilik va moliyaviy intizomning mustahkamlanishiga xizmat qilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Pespublikasi Prezidentining 2021-yil 4-avgust "Auditorlarni sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5210-sonli qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-apreldagi "O'zbekiston respublikasi hududida qo'llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 171-sonli Qarori
3. Dusmuratov R.D. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. –T.: "Iqtisod-Moliya", 2020, 495 bet.
4. Hojiyev M.S., Meliyev I.I., Djumanov S.A. Moliyaviy hisobot audit. Darslik. -T.: "LESSON PRESS", 2021. - 306 b.
5. Kuziyev I.N., Hojiyev M.S., Meliyev I.I., Qo'shmatov O.Q. Moliyaviy hisobot audit. Elektron darslik. -T.: 2022. - 306 b.
6. Tuychiev A., Qo'ziev I., Avloqulov A., Sherimbetov I., Avazov I. Audit. Darslik. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. – 620 b.
7. Bakayev X. Tashkilotning moliyaviy natijalarini hisobga olishda auditni takomillashtirish masalalari // "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 2024-yil, avgust. № 8-son.